

XITOIY TILIDA IJTIMOIIY-SIYOSIY TERMINLAR
MORFEMIKASI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7352248>

G'OFURJONOV Sirojiddin

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Nasirova S.A.

Annotation. *This article describes the formation of socio-political terms in Chinese using morpheme and differentiating morpheme from 'word' and 'hieroglyph' through socio-political terms. In the Chinese language, socio-political terms are structurally focused, and lexical and semantic aspects of the terms are also highlighted. Component analysis is conducted and tables of socio-political terms are drawn up.*

Keywords: *morpheme, socio-political terminology, hieroglyphics, table of socio-political terms*

Annnotatsiya. *Mazkur maqola xitoy tilida ijtimoiy-siyosiy terminlarni morfema yordamida shakllanishi va morfemani “so’z” va “ieroglif” dan farqi jttimoiy-siyosiy terminlar orqali bayon etiladi. Xitoy tilida jttimoiy-siyosiy terminlar struktur jihatlariga to’xtalib, terminlarning leksik-semantik jihatlari ham yoritilgan. Komponent tahlil amalga oshirilib, ijtimoiy-siyosiy terminlar jadvallari tuziladi.*

Tayanch so’z va iboralar: *morfema, ijtimoiy-siyosiy terminologiya, ieroglif, ijtimoiy-siyosiy terminlar jadvali*

Har qanday davlatning ijtimoiy-siyosiy tili uzoq o'tmish bilan bevosita bog'liq bo'lib metafora va belgilar bilan to'ldirilgan. Mamlakatning madaniy merosi va tarixiy an'analari qanchalik boy bo'lsa, uzatilyotgan matnning ma'nosini tushunish shunchalik qiyin bo'ladi. Ijtimoiy-siyosiy terminlarni til sathida etish tilshunoslikning vazifaridan biridir. “Ijtimoiy-siyosiy terminologiya” - bu tarixiy voqealar va insoniyat jamiyati hayotida yuz beradigan ijtimoiy hayotning lug'aviy aksidir. Bu terminlar bilan davlat va hokimiyat tuzilishi tushunchalarini, ularning xususiyatlari, davlat boshqaruvi, davlat va jamoat munosabatlarini o'zida mujassam ettirgan tushuncha bilanifoda etadigan so'zlarning terminologiyasidir. Termin “Ijtimoiy-siyosiy terminologiya” sifatida tasniflash uchun odatda "siyosiy", "ijtimoiy", "hokimiyat bilan bog'liq" tushunchalarni o'zida aks ettirishi kerak. Lekin jamiyatda yillar o'tkani sayin ba'zi bir terminlar o'z kuchini yoqotib, oddiy so'z bo'lib qoladi, garchand u siyosiy yoki mafkuraviy ahamiyatga ega bo'lsa ham, demak termin aniqlashda faqat bir jihat inobatga olinmasligi zarur zarur. Xitoy tilida terminlar yasashda chet tillidagi so'zlarni xitoy tiliga tatbiq etishdan ko'ra, til ichki imkoniyatlari asosida yasalishi ko'p holatlarda kuzatiladi. Bunday termin yasash lingvistika sathida amalga oshirilib, bu maqolada ijtimoiy-siyosiy terminlarni morfema orqali yasalishi haqida tushuncha berib o'tiladi. Ijtimoiy-siyosiy terminlar morfemasini bilishdan oldin, “morfema”, “ieroglif”, “so’z” orasidagi farqlar aniqlanadi.

Xitoy tilida "so'z"词 va "morfema" 语素 tushunchalarini farqlash muammosi mavjud. Xitoy tilining an'anaviy grammatikasida "so'z ma'lum bir ma'noni anglatadi, belgilangan fonetik shaklga ega, bu mustaqil ravishda ishlatilishi mumkin bo'lgan kichik birlik". Xitoy tilshunosligida umume'tirof etilgan ta'rifga ko'ra, morfema bu tilning eng kichik ahamiyatli birligi, tovush va ma'noning eng kichik ifodasi va so'z hosil qilishning asosiy tarkibiy qismi. Shubhasiz, morfemalar va so'zlar o'rtasidagi farq shundan iboratki, so'zning ta'rifi ushbu til birligidan mustaqil foydalanish

imkoniyatini ta'kidlaydi. Ammo shunday bir bo'g'inli morfemalar borki, bunday bir bo'g'inli morfemalar gapdamustaqil ravishda ishlatilish mumkin va bu holda ularning vazifalari so'zning vazifasi bilan mos keladi¹. Bunday morfemalar erkin morfemalar deb ataladi. O'zbek olimlaridan A.Karimov bu masala yuzasidan, quyidagi fikrlarni bildirgan. Birinchidan xitoy tili morfemalari tabiatan bir bo'g'inlidir. Bir bo'g'inli so'zlar esa hozirgi xitoy tilida leksik boylikning ma'lum bir qismini tashkil qilsada, biroq ikki bo'g'inligiga nisbatan kam. Xitoy tilida morfema va bir bo'g'inli so'zlarni chegaralari mos tushadi. Ikkinchidan bir bo'g'inli so'zlarning, shu jumladan bir bo'g'inli fe'llarning grammatik funksiyalari muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari ular o'z grammatik ma'nosini ham o'zgartirishga qodir, ya'ni fe'l ma'nosidan boshqa so'z turkumlar ma'nosiga o'tishi mumkin². Shuning uchun xitoy tilida "so'z" 词 va "morfema" 语素 tushunchalarini farqlash muammosi mavjud. Shunday qilib xitoy tilida morfemalar 2 xil bo'ladi: erkin va erkin bo'lmagan³. Erkin bo'lmagan morfemalar erkin bo'lgan morfemalardan farqli o'laroq mustaqil holatda ishlatilishi mumkin emas va ular faqatgina so'zlarni hosil qilishda boshqa morfemalar bilan birlashadi.

Bir bo'qinli erkin bo'lmagan morfema	morfema	So'z + yasash	Hosil bo'lgan termin	o'zbek tilidagi tilidagi ma'nosi
政	党	政 + 党	政党	siyosiy partiyalar
政	协	政 + 协	政协	Xitoy Milliy-siyosiy maslahat kengashi
政	客	政+治+科+学	政治科学	Siyosatshunoslik
政	体	政 + 体	政体	boshqaruv usuli
政	权	政 + 权	政权	tuzum
政	纲	政 + 纲	政纲	platforma
政	策, 治, 局	政+治+局	政治局	Siyosiy buyro

Erkin bo'lmagan morfemalar yordamida qanday qilib xitoy tilida so'z yasalishini “xitoy tilidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar”ni tahlili misolida ko'riladi.

“政” bir bo'g'inli erkin bo'lmagan morfema “siyosat”, “siyosiy kuch”, ma'muriy ish”, “siyosiy idora” degan ma'nolarni anglatib mustaqil ravishda gapda so'z bo'lib ishtrok eta olmaydi, lekin so'z yasalishida boshqa morfemalar bilan juftligini hosil qilib yangi termin yasaydi:

Quyida xitoy tilidagi terminlarni morfema yordamida shakllanishining ijtimoiy-siyosiy terminlarning bir bo'g'inli erkin bo'lmagan morfemikasi jadvalida 8 ta siyosiy terminlar misolida yoritiladi.

“学” bir bo'g'inli erkin bo'lgan morfema hisoblanib “o'qimoq”, “tadqiq etmoq”, “taqlid qilmoq”, “o'rganmoq” kabi ma'nolarni anglatib, mustaqil ravishda ma'no anglatuvchi morfema hisoblanadi va boshqa morfemalar bilan birlashsa yangi termin shakllantira oladi

Bu terminlar 新华字典. 北京, 2000 kitobidan keltirilib, Jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy terminalogiyasiga oid: 1. Davlat va siyosiy tizim. 2. Milliy iqtisodiyot. 3. Mamlakat konstitutsiyasi. 4. Davlatlararo munosabatlar. 5. Siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari.

Ba'zi bir xitoylik olimlarning fikriga ko'ra, ba'zi xitoycha belgilar, masalan, 十 (o'simliklar bilan bog'liq), 氵 (suv bilan bog'liq), 疒 (kasallik bilan bog'liq) bo'lgan bu kalitlar ingliz tilidagi bio-,

¹Fang Xiang. Morpheme and word in Chinese and Indo-European languages: a comparative analysis. 2016. No. 3. P. 67-70

²Каримов А.А. Некоторые теоретические аспекты в терминологии китайского языка. Научный журнал ТашГПИВ «Востоковедение». No1, T., 2015 г. 11стр.

³Fang Xiang. Morpheme and word in Chinese and Indo-European languages: a comparative analysis. 2016. No. 3. P.11-12

equ-, *audi* morfemalariga, rus tilidagi *авто-*, *авиа-*, *антропо-*, *био-*, *библио-*, *демо-*, *сверх-* - kabi morfemalariga o'xshaydi. Bu erkin bo'lmagan morfemaning yana bir ko'rinish shakli hisoblanadi. Masalan, xitoy tilida "o't" so'zi 尗 va 早 morfemalardan iborat bo'lib, tepada ta'kidlanganidek 尗 (o'simliklar bilan bog'liq) kalit bilan so'z yasalgan. 河 "Daryo" so'zi 氵 + 可 morfemalardan iborat, bu erda 氵 (suv bilan bog'liq) - erkin bo'lmagan ildiz morfemasi bo'lib, u xarakterning ma'no munosabati qismi bo'lib, suv bilan bog'liqekanligi anglatadi, 可 - bu ieroglifning fonografik qismi. Xitoycha 痛 "ho'ppoz" so'zi morfemalar sanalmish 疒 va 用 morfemasidan iborat bo'lib, bu yerda 疒 (kasallik bilan bog'liq) xarakterning ma'no munosabati qismi bo'lib, erkin bo'lmagan ildiz morfemasi sifatida ishlatilmoqda va kasalliklarga taalluqli ekanligi anglatadi, 用 - bu ieroglifning fonografik qismi. Morfemalar (ierogliflarning kalitlari) mazmuni va talaffuzi bilan, ya'ni ular tarkib topgan ierogliflar, so'zlar va morfemalar (ierogliflarning kalitlari) o'rtasidagi aloqani aniqlashda qiyinchiliklar mavjud. Shuning uchun xitoy filologi Syu Syulan hind-evropa tadqiqotlarida tushunilganidek, ierogliflarning kalitlari ham morfemalar degan fikrga qarshi chiqdi. U quyidagi misolni keltirdi: 侦 [zhen] ieroglifi "ishni ochish", "izquvar" degan ma'noni anglatadi. Ushbu ieroglif 亻 (ma'nosi odam bilan bog'liq) va 贞 [zhen] (ieroglifning fonografik qismi, faqat so'z tarkibidagi ma'noga ega, masalan, "sodiqlik", "poklik"). Bu ikki kalitlar ma'nosi qismi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri yasalgan so'zga bog'liqlik yo'q. Shuning uchun ijtimoiy siyosiy terminlar yasalganda kalitiga qarab yasalmasligi ham mumkin⁴. Sinxua ierogliflari lug'atida 496 ierogliflar 尗 kalitini o'z ichiga oladi va ularning orasida atigi 87 birlik yoki 1% o'simlik ma'nosini aks ettirgan⁵

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI (REFERENCES)

1. Каримов А.А. Некоторые теоретические аспекты в терминообразовании китайского языка. Научный журнал ТашГИВ «Востоковедение». No1, Т., 2015 г. 11стр2. Социоллингвистические исследования китайской лексики. Пекин, 2003.
2. Fang Xiang. Morpheme and word in Chinese and Indo-European languages: a comparative analysis. 2016.
3. Poole S. C. An introduction to linguistics. Beijing, 1999.4. 熊学亮.语言学新解.上海, 2003 4.
4. Сюн Сюелян. Новые перспективы лингвистики. Фудань, 2003.5. 新华字典. 北京, 2000 = Словарь иероглифов Синьхуа. Пекин, 2000 6. 吕叔湘.湘语文常谈.北京, 1980
4. СА Хашимова О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). - SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 2022.
5. С Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
6. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
7. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ. 391 с (р. 361).*
8. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.

⁴熊学亮.语言学新解.上海, 2003 = Сюн Сюелян. Новые перспективы лингвистики. Фудань, 2003.

⁵新华字典. 北京, 2000 = Словарь иероглифов Синьхуа. Пекин, 2000

9. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
10. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
11. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
12. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
13. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
14. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
15. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
16. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
17. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
18. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化, 87, 0
19. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
20. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019